**5-"___" "___" ___________201__ 5-"___" "___" ____________20__**

## 1- dars. Mening Vatanim

### Texnologik xarita

| | |
|---|---|
| **Darsning maqsadi** | **Darsning ta'limiy vazifasi:** o'quvchilarga mening Vatanim haqida bilim, malaka va ko'nikma berish<br>**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash<br>**Darsning rivojlantiruvchi vazifasi:** o'quvchilarning jamoa bo'lib harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish |
| **Kompentensiya** | Kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi |
| **Dars turi** | **suhbat, o'yin** |
| **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **O'qitish usullari:** blits-sorov,evristik usul, mustaqil ishlash.<br>**O'qitish shakllari:** yakka, frontal, guruhlarda ishlash, jamoaviy.<br>**O'qitish vositalari: k**ompyuter, taqdimot, tarqatma materiallar, darslik.<br>**Monitoring va baholash:** og'zaki va test nazorati, amaliy vazifalar; 5 ballik tizimda baholash. |
| **Ishlash bosqichlari vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
| **1-bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqa)** | O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o'quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish. |
| **2-bosqich. O'tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa)** | O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga savol bilan murojat qilinadi |
| **3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)** | O'quvchilarga mening Vatanim haqida ma'lumot berish |
| **4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)** | O'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi |
| **5-bosqich. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)** | O'quvchilar uyda o'z bilimlarini mustahkamlash va vaqtdan unumli foydalanishi uchun 2-mashq uyga vazifa sifatida topshiriladi |
| **6-bosqich. Darsni yakunlash va baholash (5 daqiqa)** | Darsga yakun yasaladi va o'quvchilarning kelib chiqqan savollariga javob beriladi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar jurnal va kundalik daftarlariga baholanadi |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o'quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.**

**III. Yangi mavzu bayoni**

Mustaqil yurtimga qo'ndi laylaklar,
Ozod yurt bayrog'i xilpirar yuksak!
Erksevar bobolar qaddin rostladi,
Sen Obod, sen Ozod qolursan beshak!

*Akbar Mirzo*



**-m, -im, -miz, -imiz, -ng, -ing, -ngiz, -ingiz, -i, -si, -lari** qo'shimchalari shaxs va narsalarning bir-biriga tegishliligini bildiruvchi egalik qo'shimchalaridir.

**IV. Mustahkamlash.**

**1- topshiriq.** Suhbatni o'qing va xarita asosida davom ettiring.

— Zumrad, qaysi mamlakatda yashaysan?

— Men O'zbekistonda yashayman. O'zbekiston — mening Vatanim. Men shu yurtda tug'ilganman, uni sevaman. Bunyod, sen qaysi shaharda yashaysan?

— Men Toshkentda yashayman.

— Toshkent qanday shahar?

— Toshkent — O'zbekistonning poytaxti. U katta va chiroyli shahar. Toshkentni yana do'stlik shahri deb ham ataydilar.

— Ayt-chi, O'zbekistonda nechta viloyat bor?

— O'n ikkita viloyat va bitta avtonom respublika bor?

— Qani, xaritadan ularni ko'rsatib ber-chi!

www.sadikov.uz




**1- mashq.** Matnni o'qing, qaratqich va egalik qo'shimchalari orqali bog'langan so'z birikmalarini aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

1- sentabr — O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni. Har yili shu kuni yurtimizda katta bayram tantanalari o'tkaziladi. Bayram Vatanimiz poytaxti Toshkentda, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida boshlanib, O'zbekistonning shahar va qishloqlarida davom etadi. Bayramga hamma yerda tayyorgarlik ko'riladi. Ko'chalar obodonlashtiriladi, turli tomoshalar ko'rsatiladi. Katta qozonlarda milliy taomlar pishiriladi. Bayram kuni oilamiz a'zolari bilan sayrga chiqamiz.

**2- mashq.** «Vatan» va «o'lka» so'ziga egalik qo'shimchalarining mosini qo'shing va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**VATAN**
**O'LKA** +
- **-m**
- **-im**
- **-ng**
- **-ing**
- **-i**
- **-si**

**VATAN**
**O'LKA** +
- **-miz**
- **-imiz**
- **-ngiz**
- **-ingiz**
- **-lari**

**3- mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring. «Vatan» mavzusida shunday maqollar toping va daftaringizga ko'chiring.

1. O'z uying — o'lan to'shaging.
2. Bulbul chamanni sevar, inson — Vatanni.
3. Vatan ostonadan boshlanadi.

**V. Uyga vazifa:** 2-topshiriq

**VI. Darsni yakunlash va baholash.**

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirish maqsadida 5 ballik sistema yordamida baholanadi.

**Dars ishlanmasini ko'rdim:** __________ _______________
**(imzo)**

5-“___” “___” __________201__ 5-“___” “___” ___________20__

## 2- dars. Mening Vatanim
### Texnologik xarita

| | |
|---|---|
| **Darsning maqsadi** | **Darsning ta’limiy vazifasi:** o’quvchilarga mening Vatanim haqida bilim, malaka va ko’nikma berish<br>**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o’quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash<br>**Darsning rivojlantiruvchi vazifasi:** o’quvchilarning jamoa bo’lib harakat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish |
| **Kompentensiya** | Kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi |
| **Dars turi** | **suhbat, o’yin** |
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **O‘qitish usullari:** blits-sorov,evristik usul, mustaqil ishlash.<br>**O‘qitish shakllari:** yakka, frontal, guruhlarda ishlash, jamoaviy.<br>**O‘qitish vositalari: k**ompyuter, taqdimot, tarqatma materiallar, darslik.<br>**Monitoring va baholash:** og‘zaki va test nazorati, amaliy vazifalar; 5 ballik tizimda baholash. |
| **Ishlash bosqichlari vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
| **1-bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqa)** | O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish. |
| **2-bosqich. O’tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa)** | O’tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga savol bilan murojat qilinadi |
| **3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)** | O’quvchilarga mening Vatanim haqida ma’lumot berish |
| **4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)** | O’quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi |
| **5-bosqich. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)** | O’quvchilar uyda o’z bilimlarini mustahkamlash va vaqtdan unumli foydalanishi uchun 4-topshiriq uyga vazifa sifatida topshiriladi |
| **6-bosqich. Darsni yakunlash va baholash (5 daqiqa)** | Darsga yakun yasaladi va o’quvchilarning kelib chiqqan savollariga javob beriladi. Darsda faol qatnashgan o’quvchilar jurnal va kundalik daftarlariga baholanadi |

## I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o'quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish.

## II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

**1- topshiriq.** Suhbatni o'qing va xarita asosida davom ettiring.

— Zumrad, qaysi mamlakatda yashaysan?

— Men O'zbekistonda yashayman. O'zbekiston — mening Vatanim. Men shu yurtda tug'ilganman, uni sevaman. Bunyod, sen qaysi shaharda yashaysan?

— Men Toshkentda yashayman.

— Toshkent qanday shahar?

— Toshkent — O'zbekistonning poytaxti. U katta va chiroyli shahar. Toshkentni yana do'stlik shahri deb ham ataydilar.

— Ayt-chi, O'zbekistonda nechta viloyat bor?

— O'n ikkita viloyat va bitta avtonom respublika bor?

— Qani, xaritadan ularni ko'rsatib ber-chi!

## III. Yangi mavzu bayoni



**Egalik qo'shimchalari k harfi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda k > g tovushiga, q bilan tugaganda esa q > g' ga o'zgaradi.**

## IV. Mustahkamlash.

**3- topshiriq.** Matnni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nosini tushuntirib bering.

### O'ZBEKISTON — MENING VATANIM

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan. U Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston bilan **chegaradosh.** O'zbekistonning **poytaxti** Toshkent shahri. Yurtimda **qadimiy** va **navqiron** shaharlar ko'p. Buxoro, Samarqand, Xiva Vatanimizning qadimiy shaharlaridir. Mening Vatanim o'zining paxtasi, gazi, foydali qazilmalari bilan **dunyoga tanilgan.** Yurtimiz **qazilma boyliklari** bilan mashhur. O'zbekistonda **turli millat va elat vakillari do'st, ahil** yashaydilar. Men o'z yurtimni va xalqimni **sevaman.**

**4- mashq.** Egalik qo'shimchasi qo'shilganda qaysi harflarda o'zgarish yuz berganini aniqlang. Ular ishtirokida gap tuzing.

| | |
|---|---|
| **bilak** | — mening bilagim |
| **barmoq** | — uning barmog'i |
| **kuchuk** | — uning kuchugi |
| **qishloq** | — bizning qishlog'imiz |
| **o'rtoq** | — ularning o'rtog'i |

**5- mashq.** «O'zbekiston — mening Vatanim» matnidan foydalanib, savollarga javob bering.

— **O'zbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh?**
— **O'zbekiston o'zining nimalari bilan dunyoga mashhur?**
— **O'zbekistonning qadimiy shaharlarini bilasizmi?**
— **O'zbekistonning qaysi shaharlarida bo'lgansiz?**

**V. Uyga vazifa: 4-topshiriq**

**VI. Darsni yakunlash va baholash.**

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirish maqsadida 5 ballik sistema yordamida baholanadi.

**Dars ishlanmasini ko'rdim:** __________ ______________
**(imzo)**

www.sadikov.uz

**5-“___” “___” ____________201__ 5-“___” “___” _____________20__**

# 3- dars. Mening Vatanim

## Texnologik xarita

| | |
|---|---|
| **Darsning maqsadi** | **Darsning ta’limiy vazifasi:** o’quvchilarga mening Vatanim haqida bilim, malaka va ko’nikma berish<br>**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o’quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash<br>**Darsning rivojlantiruvchi vazifasi:** o’quvchilarning jamoa bo’lib harakat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish |
| **Kompentensiya** | Kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi |
| **Dars turi** | **suhbat, o’yin** |
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **O‘qitish usullari:** blits-sorov,evristik usul, mustaqil ishlash.<br>**O‘qitish shakllari:** yakka, frontal, guruhlarda ishlash, jamoaviy.<br>**O‘qitish vositalari: k**ompyuter, taqdimot, tarqatma materiallar, darslik.<br>**Monitoring va baholash:** og‘zaki va test nazorati, amaliy vazifalar; 5 ballik tizimda baholash. |
| **Ishlash bosqichlari vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
| **1-bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqa)** | O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish. |
| **2-bosqich. O’tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa)** | O’tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga savol bilan murojat qilinadi |
| **3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)** | O’quvchilarga o’tgan zamon aniq fe’li haqida ma’lumot berish |
| **4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)** | O’quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi |
| **5-bosqich. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)** | O’quvchilar uyda o’z bilimlarini mustahkamlash va vaqtdan unumli foydalanishi uchun 5-topshiriq uyga vazifa sifatida topshiriladi |
| **6-bosqich. Darsni yakunlash va baholash (5 daqiqa)** | Darsga yakun yasaladi va o’quvchilarning kelib chiqqan savollariga javob beriladi. Darsda faol qatnashgan o’quvchilar jurnal va kundalik daftarlariga baholanadi |

**I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o'quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.**

**3- topshiriq.** Matnni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nosini tushuntirib bering.

**O'ZBEKISTON — MENING VATANIM**

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan. U Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston bilan **chegaradosh.** O'zbekistonning **poytaxti** Toshkent shahri. Yurtimda **qadimiy** va **navqiron** shaharlar ko'p. Buxoro, Samarqand, Xiva Vatanimizning qadimiy shaharlaridir. Mening Vatanim o'zining paxtasi, gazi, foydali qazilmalari bilan **dunyoga tanilgan.** Yurtimiz **qazilma boyliklari** bilan mashhur. O'zbekistonda **turli millat va elat vakillari do'st, ahil** yashaydilar. Men o'z yurtimni va xalqimni **sevaman.**

**III. Yangi mavzu bayoni**



**-ning** qo'shimchasi **men, sen** so'zlariga qo'shilganda bitta **n** harfi yozilmaydi: men+**ning** > mening, sen+**ning** > sening. **-ning** qo'shimchasi so'zlarga doimo egalik qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi. *Masalan:* yurtimizning, shahrimning.

**IV. Mustahkamlash.**

**6- mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Akbarali ... turadi. Ularning... juda chiroyli. Vali va Jalol inoq ... , Jalol ... tez-tez keladi. 2. Bizning uyimiz ... yonbag'rida joylashgan. Do'stlarimiz bilan ... chiqib turamiz. 3. Otam menga qo'zichoq olib keldi. Men ... juda yaxshi ko'raman.

***Foydalanish uchun so'zlar:*** qishloqda, o'rtoq, qishlog'i, o'rtog'inikiga, tog', tog'ga, qo'zichog'imni.

**7- mashq.** Nuqtalar oʻrniga mos qoʻshimchalarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

**1. Oʻzbekiston Respublikasi biz... Vatan... . 2. Har bir millat... urf-odat... ni hurmat qilish burchimizdir. 3. Oʻzbek til... Oʻzbekiston... rasmiy tilidir. 4. Maktab...da Alisher Navoiyga haykal oʻrnatildi. 5. Maqsading oʻz yurt... mustaqilligini mustahkamlashdan iborat boʻlsin.**

**V. Uyga vazifa: 5-topshiriq**

**VI. Darsni yakunlash va baholash.**

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantirish maqsadida 5 ballik sistema yordamida baholanadi.

**Dars ishlanmasini ko’rdim:** ___________ ________________
**(imzo)**

www.sadikov.uz

5-“___” “___” ___________201__ 5-“___” “___” ____________20__

## 4- dars. Oila a’zolarining ish kuni

### Texnologik xarita

| | |
|---|---|
| **Darsning maqsadi** | **Darsning ta’limiy vazifasi:** o’quvchilarga oila a’zolarining ish kuni haqida bilim, malaka va ko’nikma berish<br>**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o’quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash<br>**Darsning rivojlantiruvchi vazifasi:** o’quvchilarning jamoa bo’lib harakat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish |
| **Kompentensiya** | Kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi |
| **Dars turi** | **suhbat, o’yin** |
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **O‘qitish usullari:** blits-sorov,evristik usul, mustaqil ishlash.<br>**O‘qitish shakllari:** yakka, frontal, guruhlarda ishlash, jamoaviy.<br>**O‘qitish vositalari: k**ompyuter, taqdimot, tarqatma materiallar, darslik.<br>**Monitoring va baholash:** og‘zaki va test nazorati, amaliy vazifalar; 5 ballik tizimda baholash. |
| **Ishlash bosqichlari vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
| **1-bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqa)** | O’quvchilar bilan salomlashishi, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish. |
| **2-bosqich. O’tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa)** | O’tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga savol bilan murojat qilinadi |
| **3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)** | O’quvchilarga oila a’zolarining ish kuni haqida ma’lumot berish |
| **4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)** | O’quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi |
| **5-bosqich. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)** | O’quvchilar uyda o’z bilimlarini mustahkamlash va vaqtdan unumli foydalanishi uchun 1-mashq uyga vazifa sifatida topshiriladi |
| **6-bosqich. Darsni yakunlash va baholash (5 daqiqa)** | Darsga yakun yasaladi va o’quvchilarning kelib chiqqan savollariga javob beriladi. Darsda faol qatnashgan o’quvchilar jurnal va kundalik daftarlariga baholanadi |

## I. Tashkiliy qism.

O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish.

## II. O’tilgan mavzuni takrorlash.

**6- mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

**1. Akbarali ... turadi. Ularning... juda chiroyli. Vali va Jalol inoq ... , Jalol ... tez-tez keladi. 2. Bizning uyimiz ... yonbag‘rida joylashgan. Do‘stlarimiz bilan ... chiqib turamiz. 3. Otam menga qo‘zichoq olib keldi. Men ... juda yaxshi ko‘raman.**

***Foydalanish uchun so‘zlar:*** **qishloqda, o‘rtoq, qishlog‘i, o‘rtog‘inikiga, tog‘, tog‘ga, qo‘zichog‘imni.**

## III. Yangi mavzu bayoni



Shaxs va narsalarni kichraytirib, erkalab ifodalash uchun so‘zlarga **-cha, -choq, -loq, -jon, -xon** kabi qo‘shimchalari qo‘shiladi.
*Masalan:* mushuk**cha**, qiz**cha**, qo‘zi**choq**.

## IV. Mustahkamlash.

**1- topshiriq.** Rasm asosida yozgi ta’tilni qanday o‘tkazganingizni eslang va «Nima qilding?» so‘rog‘iga javob berib, gaplar tuzing.

**2- topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

**Yoz — naqadar soz. Bu fasl o‘quvchilarga juda yoqadi. Endi bolajonlar ko‘chalarni to‘ldirib futbol, chillak, vizvizak o‘ynaydilar. Anhor va soylarda mazza qilib cho‘miladilar. Qizlar uy yumushlarida kattalarga yordam beradilar.**

**Yozda men ... .**

Matnni o‘zingiz bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar asosida davom ettiring.

## V. Uyga vazifa: 1-mashq

## VI. Darsni yakunlash va baholash.

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantirish maqsadida 5 ballik sistema yordamida baholanadi.

**Dars ishlanmasini ko’rdim:** ________ ____________

**(imzo)**

**5-“___” “___” ___________201__ 5-“___” “___” ____________20__**

# 5- dars. Oila a’zolarining ish kuni

## Texnologik xarita

| | |
|---|---|
| **Darsning maqsadi** | **Darsning ta’limiy vazifasi:** o’quvchilarga oila a’zolarining ish kuni haqida bilim, malaka va ko’nikma berish<br>**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** o’quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash<br>**Darsning rivojlantiruvchi vazifasi:** o’quvchilarning jamoa bo’lib harakat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish |
| **Kompentensiya** | Kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi |
| **Dars turi** | **suhbat, o’yin** |
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **O‘qitish usullari:** blits-sorov,evristik usul, mustaqil ishlash.<br>**O‘qitish shakllari:** yakka, frontal, guruhlarda ishlash, jamoaviy.<br>**O‘qitish vositalari: k**ompyuter, taqdimot, tarqatma materiallar, darslik.<br>**Monitoring va baholash:** og‘zaki va test nazorati, amaliy vazifalar; 5 ballik tizimda baholash. |
| **Ishlash bosqichlari vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
| **1-bosqich. Tashkiliy qism (3 daqiqa)** | O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish. |
| **2-bosqich. O’tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa)** | O’tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga savol bilan murojat qilinadi |
| **3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)** | O’quvchilarga oila a’zolarining ish kuni haqida ma’lumot berish |
| **4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)** | O’quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi |
| **5-bosqich. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)** | O’quvchilar uyda o’z bilimlarini mustahkamlash va vaqtdan unumli foydalanishi uchun 3-mashq uyga vazifa sifatida topshiriladi |
| **6-bosqich. Darsni yakunlash va baholash (5 daqiqa)** | Darsga yakun yasaladi va o’quvchilarning kelib chiqqan savollariga javob beriladi. Darsda faol qatnashgan o’quvchilar jurnal va kundalik daftarlariga baholanadi |

www.sadikov.uz

## I. Tashkiliy qism.

O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o’quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish, navbatchi o’quvchi tayyorlab kelgan siyosiy axborot bilan tanishish.

## II. O’tilgan mavzuni takrorlash.

1. Misralardan «k» va «g» tovushlari qatnashgan so‘zlarni toping. Talaffuzdagi farqlarini tushuntiring.
2. She’r mazmuni asosida Vatanimiz tabiati haqida gapirib bering.

## III. Yangi mavzu bayoni



Shaxs, joy, voqealarning nomini bildiruvchi atoqli otlar **birlik sonda** qo‘llanadi: **Alisher, Chortoq, Mustaqillik kuni** kabi. Kishi tana a’zolarining nomi, donalab sanalmaydigan narsalar ham faqat birlikda ishlatiladi. *Masalan: Qo‘l, ko‘z, qosh, g‘alla, suv.* **Qo‘l** ko‘tardim. **Suv** ichdik.

## IV. Mustahkamlash.

**2- mashq.** Rasmlar o‘rniga ular ifodalagan so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Bu so‘zlarning birlikda ishlatilishiga e’tibor bering.

Hovlimizga  da suv sepib supurdim. Kuzda  pishib yetiladi. Bog‘dan bir chelak  terdim. Oyimga polizdan  va  olib keldim. Chunki bugun shirin ovqat tayyorlamoqchimiz. Uyimizga mehmonlar kelishsa xursand bo‘lamiz.

## V. Uyga vazifa: 3-mashq

## VI. Darsni yakunlash va baholash.

Dars yakunlanadi va darsda faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantirish maqsadida 5 ballik sistema yordamida baholanadi.

**Dars ishlanmasini ko’rdim:** ____________ ________________

**(imzo)**